

**ALISHER NAVOIYNING MA'NAVIY MEROSI VA UNDAGI PEDOGOGIK
QARASHLAR**

Rahimberdiyeva Xurshida A'loxon qizi

*Namangan Davlat Pedagogika Instituti, Pedagogika nazariyasi va tarixi yo'nalishi
magistranti.*

Tel: +998 (94)-376-20-01. E-mail: xmamatxanova@icloud.com

**ALISHER NAVAII'S SPIRITUAL HERITAGE AND ITS PEDAGOGICAL
APPROACHES**

Rahimberdiyeva Xurshida A'loxon qizi

*Namangan State Pedagogical Institute, Master's degree in Theory and History of
Pedagogy.*

Tel: +998 (94)-376-20-01. E-mail: xmamatxanova@icloud.com

ANNOTATSIYA

Vatanimiz tarixida va bugunida o'z o'rniiga ega bo'lgan buyuk mutafakkirlarimiz tomonidan ilgari surilgan dono fikrlari, o`gitlari va ijodiy yutuqlarini o`rganish xalqimizning ma'naviy dunyosini kengaytirishda beqiyos o'ringa ega. Shuningdek, yoshlarning kamol topishida va jamiyatda o'z o'rinaliga ega bo'lishida muhim vositalardan biri sanaladi. Sharq xalqlarining ma'naviy merosida o'zining asarlari bilan nom qozongan va mumtoz adabiyotning tipik nomoyondalaridan biri, komil inson g'oyasining tashabbuskori, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy merosini tadqiq etish va undan faoliyati davomida foydalanish har bir pedagogning vazifasi hisoblanadi. Buyuk allomaning hamma asarida tarbiya va ta'lim haqida fiklar juda ham ko'p va ularda insonparvarlik g`oyalari bosh o'rinda turadi. Mutafakkirning fikricha, inson eng oliy hilqat bo'lib, bu dunyoda hammadan yuksak, aziz va qadrli hisoblanadi. Shunday ekan, Alisher Navoiyning barcha asarlari yosh avlodni tarbiyalashda muhim manbalardan biridir.

Kalit so'zlar: Zahiriddin Muhammad Bobur, turkiy til, eski o'zbek adabiy tili, Xondamir, komil inson g'oyasi, "hayot chirog'i".

ANNOTATION

The study of the wise thoughts, teachings and creative achievements of great writers who have taken their place in the history and present of our homeland plays an incomparable role in expanding the spiritual world of our people. It is also considered one of the important tools for the development of young background and their place in society. It is the duty of every educator to study the legacy of Alisher Navoi, who became famous for his works in the spiritual heritage of the peoples of the East and is

one of the typical representatives of classical literature, the initiator of the idea of a perfect person, and to use it in his work. In all the works of the great scholar, there are many ideas about upbringing and education, and humanitarian ideas are at the forefront of them. According to the scholar, man is the highest creation, he is considered the highest, most precious and valuable in this world. Therefore, all the works of Alisher Navoi are one of the important sources in educating the younger generation.

Key words: Zahiriddin Muhammad Babur, Turkic language, old Uzbek literary language, Khondamir, the idea of a perfect person, "the light of life."

Alisher Navoiy mumtoz adabiyotimizni poydevorini qurgan va o`zbek adabiy tili ravnaqiga ulkan hissa qo`shtan so`z mulkining sultonidir. Mustaqillikka erishilgach, Vatanimiz tarixida o`z o`rniga egan bo`lgan bobokalonlarimiz shaxsiyati va ijodiga alohida e`tibor qaratila boshlandi. Ayni shu sababli, kelajak avlod vakillari Navoiyning boy adabiy merosiga to`laqonli yondashish imkoniga ega bo`ldi. Alisher Navoiy turkiy adabiyotning mutafakkir shoiri sifatida o`zidan keyingi davrlarda yashab ijod etgan ijodkorlar uchun ma`naviy ustoz bo`lib qoldi. Uning boy ijodiy merosi ko`pgina Sharq adabiyoti namoyandalari uchun ilhom manbai bo`ldi. Keyingi asrlarda Navoiy shaxsiyati va ijodiga bo`lgan cheksiz hurmat va ehtirom rang-barang shakllarda o`z ifodasini topdi. Bu ko`proq Navoiy asarlarini o`qib-o`rganish, asarlarini kitobot qilish, shoир asarlariga oid lug`atlar tuzish, tazkira, tarixiy, ilmiybadiiy asarlarda ulug` san`atkor shaxsi va ijodiy faoliyatiga munosabat bildirish, she`rlariga muxammaslar bitish, dostonlarining nasriy bayonini yaratish va ayrim asarlarini tarjima qilish kabi shakllarda namoyon bo`ldi¹.

Hozirgi kunda ham bu zotning ijodini yanada chuqurroq o`rganish bo`yicha ko`plab ilmiy ishlar olib borilmoqda, ilmiy tadqiqotlar ko`lami yanada kengaymoqda. Buning eng asosiy sababi, mutafakkirning boy va beba ho merosi asrlar o`tibdiki, ajdodlarimizni ezgulikka, mehr-muruvvatga, tinchlik va do`stlikka, bolalar tarbiyasiga alohida e`tibor qaratish va ma`naviy hayotni tartibga solishga da`vat etib kelgan. Alisher Navoiyning zamondoshi bo`lgan Zahiriddin Muhammad Bobur:

"...turkiy til bila to she`r aytibdurlar, hech kim oncha ko`p va xo`b aytqon emas²." Shuningdek, bunday fikrlar allomaning "Lisonut-tayr" asarida: Nazmu nasrim kotibi taxminshunos yozsa, yuz ming bayt etar erdi qiyos,- deb yozgan. Eski o`zbek adabiy tilining asoschisi, jahon adabiyotining shakllanishida ham o`z o`rniga ega bo`lgan tengsiz ijodkor, shoirlarning sultoni ikki tilda: turkiy yoki forsiy tillarda ijod qilgan. Navoiy o`z asarlarida har bir o`zbek turli ko`rinishlaridan unumli va o`rinli foydalana olgan. Uning har bir hikmati tarbiyaviy ahamiyatga ega va yoshlar uchun

¹ Matyoqubova .T. Alisher Navoiy hayoti va ijodi//O`quv qo'llanma. Toshkent, 2009. P.31.

² Jabborova. G. Yosh avlodni ma`naviy barkamol etib tarbiyasida Alisher Navoiy merosining muhim ahamiyati.

"Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal, 2020. P.2-3.

uchun ibratlidir. Mutafakkirning hayoti va merosi umuminsoniy fazilatlarni shakllantirishda har tomonlama namuna bo`ladi. Ulug` shoir fikr-mulohazalari bilan barkamol avlod tarbiyasiga katta hissa qo`shdi, uning umuminsoniy fazilatlar haqidagi fikrlari hozirgi davrimiz uchun ham ahamiyatlidir. Har bir o`qituvchi-pedagog faoliyat yuritar ekan, berayotgan ta`lim-tarbiyasining yanada samarali bo`lishi uchun o`z ustida muttasil ishlashi, bilimini, mahoratini o`stirishi, o`quvchilar bilan bo`ladigan munosabatlarni puxta o`ylab, ularning ko`ngliga ozor yetkazmasdan ish olib borishi lozim. Muomala madaniyati, o`zini tuta bilishini nazorat qilishi kerak. Har bir tarbiyachining dunyoqarashi uning muomalasida namoyon bo`ladi. Muomalaning asosiy vositasi -tildir. O`qituvchi o`zining pedagogik faoliyatida to`g`riso`z bo`lishi, ishlarniadolat bilan olib borishi kerak. Bu xislat tarbiyachi bilan o`quvchi o`rtasida yaqinlikni oshiradi, chunkiadolat insonlar xulqini baholovchi muhim mezondir. Hazrat Alisher Navoiy aytganidek: “Loaqal bir harf o`rgatgan ustozning haqqini yuz ming ganj-u xazina bilan ham uzib bo`lmaydi”.

Navoiy nafaqat ijodi, balki butun hayoti bilan ham barchaga ibrat bo`la oladigan buyuk shaxs. Yoshlarga g`amxo`rlik, ularni hayotning keng va ravon yo`llariga olib chiqish borasida qilgan ibratli ishlari tahsinga sazovordir. U iste`dodli, ilmga tashna yoshlar tarbiyasiga jiddiy e`tibor bergan. Tarixchi Xondamir, buyuk rassom Kamoliddin Behzod, xattot Sulton Ali singari o`z davrining yetuk shaxslari ham Navoiy homiyligida kamolat cho`qqisiga erishdilar. Navoiy olimlar, shoirlar, tarixchilarni yirik va jiddiy asarlar yozishga da`vat etdi, ularga har jihatdan amaliy yordam ko`rsatdi. Bobur Mirzo “Boburnoma”da yozadi: “Ahli fazlg`a, ahli hunarg`a Alisherbekcha murabbiy va muqavviy ma'lum emaskim, hargiz paydo bo`lmish bo`lg`ay”. Xondamirning yozishicha, Navoiy ilm toliblari faqat o`qish bilan mashg`ul bo`lsin deb, ularga nafaqalar tayin etgan. Bu ilm toliblari orasidan katta olimlar yetishib chiqqan³.

Alisher Navoiyning har bir so`zi, inson va bashariyat, ijtimoiy hayot va jamiyat uchun qilgan xizmatlari, go`zallik dunyosi, nafosat olamiga doir qarashlari doimo yoshlarning bilim va ijod dunyosi rivojiga yo`l ochgan. Shoirning tarixiy shaxs sifatida qalam tebratishi forsiy va turkiy adabiyot rivojiga xizmat qildi. Uning badiiy timsollarida xilma-xil millat vakillari, ularning go`zallikka oshno qalblari, milliy tuyg`u bilan sug`orilgan estetik dunyoqarashi adabiyot, madaniyat va san`at yutuqlarini tadqiq qilishga, yoshlarda she`riyatga munosabatning kamol topishiga, forsiy va turkiy adabiyot orasidagi aloqalarni mustahkamlash va ayni vaqtida turkiy tilda ijod qiladiganlarni har tomonlama rag`batlantirishga, kuchg`ayrat sarflashga undagan. “Qadimiy turkiy tilda barakali ijod qilib, uni adabiy til, madaniyat va saltanat tili darajasiga ko`targan, barcha asarlari umumbashariy gumanistik g`oyalar bilan

³ Tog`aymurodov.M. Alisher Navoiy bola tarbiyasi xususida. JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS/<http://www.newjournal.org/2023>.

sug‘orilgan Alisher Navoiyni shuning uchun ham barcha turkiy xalqlar o‘z shoiri sifatida alohida mehr bilan o‘qib-o‘rganadi va u bilan faxrlanadi”. Shuning uchun Navoiyning badiiy asarlarida ham, ilmiy qarashlari va tadqiqotlarida ham, hamma-hammasida yosh avlodni tarbiyalashning an’anaviy jihatlari ko‘rinib turadi. Alisher Navoiyning adabiy-estetik qarashlari uning badiiy asarlarida, «Majolisun-nafois», «Muhokamatul-lug‘atayn», «Tarixi anbiyo va hukamo», «Nasoimul-muhabbat» kabi ilmiy asarlarida ham o‘z ifodasini topgan⁴. Alisher Navoiy yoshlarga chuqur bilim berish uchun muallimlar, mudarrislar va ustoz-murabbiylarning o‘zлari ham bilimli va tarbiyali bo‘lishi zarurligini uqtiradi. U nodon mutassib johil domlalarni tanqid etadi va o‘qituvchi ma’lumotli, o‘qitish yo’llarini biladigan muallim bo‘lishi zarur, deydi.

Buyuk mutafakkir o‘zining “Mahbub ul-qulub” asarida maktabdorlar haqida fikr yuritgan bo‘lib, ularning bir qator hislatlarini: qattiqqo‘llik, johillik va ta’magirliklarini qoralaydi. U, shuningdek, johil muallimlarning gunohsiz yosh bolalarga jafo qilayotganliklarini keskin tanqid ostiga oladi. U jafokorlarni yosh bolalarga azob berishga, kaltaklashga o‘rgangan, g`azabli insonlar deya ularga nisbatan ochiqdan-ochiq nafratini izhor etgan. Ularning ko‘pchiligidagi ko‘ngil qattiqligi va ta‘b xastaligi oshkor. Buning ustiga ular aql kamligiga ham giriftor. Ular qiynash yo`li bilan bolalar ko`nglini o‘zlariga rom qilmoqchi va kichkintoylarning beqaror tabiatini do`q-po`pisa bilan tartibga solmoqchi bo`ladilar. Ulardagi ko‘rinib turgan qo`pollik, yosh bolalardagi kelishmagan xattiharakatni silliqlashga yirik egovdir. Ular ishi odam qo`lidan kelmas, odam emas, balki dev qila olmas. Bir kuchli kishi bir yosh bolani saqlashga ojizlik qiladi. Lekin ustoz bolaga ilm va odob o`rgatadi.

Alisher Navoiyning asarlarida eng e’tibor qaratilgan masala bu farzand tarbiyasi hisoblanib, tarbiyalanuvchini “hayot chirog‘i” deb nomlaydi. Farzand shunday bir ne’matki, u har qanday oilaga baxt va saodat keltiruvchi ziyodir. Shoiringning fikricha, shaxsga kichik yoshligidanoq bilim berishni ta’rg‘ib qilgan va o‘g‘il-qizlarni 6 yoshdan boshlab tarbiyachilarga, keyin esa muallimga berish lozim, deb ta’kidlaydi. U “Mahbub ul-qulub” asarida ilm o‘qib uni ishlasmagan kishi, shudgor qilib dehqonchilik qilmagan yoki urug‘ sochib hosildan bahra olmaganga o‘xshaydi, deydi. Ilm o‘qib qilmagan amal maqbul, Dona sochib ko‘tarmadi mahsul. Olim bilim olishda barcha fanlarni o‘rganishni targ‘ib etadi. Bunda u olim-u fozillarni yig‘ib, ular orqali ilm-fanni taraqqiy ettirishga e’tibor beradi. Alisher Navoiyning fikricha, bilimlarni tinmay uzluksiz o‘rganish zarur, bunda har qanday qiyinchiliklarni yengib o‘tish muhimligini, qunt bilan ishslash, tirishqoqlik bilan harakat qilish, izchillik bilan kurash, uni oxirigacha yetkazish, chidam va sabot bilan o‘rganishni ta’kidlaydi. Demak, buyuk alloma ilm olish tamoyillarini o‘z davrida to‘g‘ri ifodalab, hatto ta’lim tizimini belgilab beradi: ya’ni Alisher Navoiy ta’lim tizimini o‘z davrida o‘quv muassasasi,

⁴ Sirojiddinov. Sh. «Alisher Navoi and the XXI century». The Materials of the International Scientific-Theoretical Conference on the Theme. Toshkent, 2021. P.355-356.

madrasalarda o‘qish, olim, hunarmand, san’atkorlarga shogird tushib yoki mustaqil holda ilm olish imkoniyatlaridan foydalanishni tavsiya etadi.

Hazrat Navoiyning deyarli har bir asarida komil inson g‘oyasi yotadi. Ayniqsa, “Hayrat ul-abror” dostonida ta’lim-tarbiyaga oid qarashlari juda sodda va obrazli qilib keltirilgan. Bola esa o‘zi samimiy bo‘lgani uchun samimiyat bila sug‘orilgan asarlarga intiladi. “Hayrat ul-abror”ning o‘ninchи maqolati rostlik (to‘g‘rilik) ta’rifida. Muallifning o‘zi bu haqida yozar ekan: “Rostlik ta’rifida kim, borliq uyi shu to‘g‘ri ustun bilan tik, ul uyning yotoqxonasi burchagida bu nur (rostlik) sha’mi majlisni bezatadi; egrilikni esa rad etish haqdakim, agar egri odam kumush badan go‘zallar yuzidan zulfdek joy olsa ham (baribir oxirida) boshi kesiladi; egri odam agar xazina ustida ajdahodek halqa bo‘lib yotgan bo‘lsa ham uni o‘ldirish zarur”, - deydi⁵.

Alloma yoshlarga chuqur bilim berishda muallimning, mudarrislar hamda ustoz murabbiylarning o‘zлари ham bilimli va tarbiyalı bo‘lishi zarurligini uqtiradi. Bunday muallimlar shogirdlarni yonida yuzlari yorug‘ bo‘lib, doimo izzatda, hurmatda bo‘ladilar, deb ta’kidlaydi. Shunday qilib, biz Alisher Navoiyni pedagog-mudarris deb atashimiz mumkin. Chunki ta’lim-tarbiya masalalariga alohida e’tibor berib, tarbiya jarayonlarini, vositalarini, talablarini ko‘rsatib o‘tadi. U ta’limda ilmiylik, asoslanganlik, tarixiylik kabi talablarni asos qilib olgan buyuk pedagogdir. Chunki boqiy hayotga intilgan Navoiy fikricha, dono inson o`zining kuch-quvvatiga aql-u zakovatiga ishonadi. Shuning uchun Navoiy ilm-fanning ahamiyatini yoritib berar ekan, ilmni qorong`ulikni yoritadigan chiroq, hayot yo`lini nurafshon etadigan quyosh, odamlarning haqiqiy qiyofasini ko`rsa-tadigan olim sifatida ta’riflaydi.

Alisher Navoiy odamlarni axloqli va odobli bo`lishga da`vat etadi hamda hamda axloqni bunday ta`riflaydi . “Ahloq shaxsning og`ir baqolig` libosidir va libos jismning sangin debosi. Shuning bilan birga odamni bezaydigan ham axloqdir ” Alisher Navoiyhikmatlaridan olam-olam ma`no mujassamdir. O‘rni kelganda shuni ham ta’kidlash kerakki, Navoiy bola tarbiyasida quyidagicha pozitsiyaga ega: “Qobilg‘a tarbiyat qilmamoq zulmdur va noqobilg‘a tarbiyat – hayf. Ani adami tarbiyat bila zoye’ qilma va munga tarbiyatingni zoye’ qilma (Ya’ni: Qobiliyatli odamni tarbiya qilmaslik zulmkorlik va noqobil odamga tarbiya xayfdir. Unisiga tarbiyani ayab nobud qilma, bunisiga tarbiyangni zoye qilma).

Qit’a:

Qobilg‘a tarbiyat erur ul nav’kim, guhar
Tushsa nujosat ichra yug‘ay kimsa ani pok.
Gar it uzumig‘a kishi may birla bersa suv,

⁵Sirojiddinov. Sh. «Alisher Navoi and the XXI century». The Materials of the International Scientific-Theoretical Conference on the Theme. Toshkent, 2021. P.429-430.

Bu tarbiyat bila qila olg‘aymu ani tok⁶.

Uning hikmatlarida ilm – ma`rifat, mehr – oqibat, insoniylik kabi masalalar markaziy o`rinni egallaydi. Birov kim qilsa olimlarga ta`zim, Qilur go`yoki payg`ambarga ta`zim. Shoir olim ahlini qadrlaydi, ulug`laydi. Olimlarga ta`zim qilish-payg`ambarga ta`zim qilish bilan barobar ekanligini ta`kidlaydi .

Allomaning asarlari nafaqat miqdor jihatidan, balki mazmun-mohiyati bo`yicha ham beqiyos ahamiyat kasb etadi. Uning badiiy va ilmiy asarlari yuzlab olimlar tomonidan o`rganilgan, tadqiq etilgan. Navoiy lirikasida odam va olam, hayot va uning go`zalliklari, mehnatsevarlik, go`zallikka shaydo qalblarning o`z Vataniga, yoriga bo`lgan otashin muhabbati ulug`lanadi. Adibning lirik asarlarida odam va olam, hayot va uning go`zalliklari o`quvchilarga ravon va sodda qilib yetkazib beriladi. Yosh avlodni ma`nan yuksaklikka erishishida atrofdagilarga doimo yaxshilik qilish, ezgulik urug`ini keng olamga tarqatish bu esa o`z navbatida o`ziga va oila a`zolariga yaxshilik bo`lib qaytishi haqida asarlaridagi qahramonlar, she`riy misralarida o`z ifodasini topadi.

Allomaning mukammal asarlar to`plami ilgari ham nashr etilgan, biroq o`sha davrdagi mafkura nuqtai nazaridan asarlardagi butun-butun boblar tushirib qoldirilgan. Mustaqillik yillarida Navoiyning yigirma jildli mukammal asarlar to`plamini to`laligicha chop etish ishlari yakuniga yetdi.Har yili navoiyshunos olimlar tomonidan yangi-yangi ilmiy maqolalar, risolalar yaratilmoqda. Demak, Navoiyni o`rganish, uni yanada chuqur anglash borasidagi izlanishlar izchil davom etayotir. Alisher Navoiy hazrat ijodiyotini bepoyon ummonga qiyoslash mumkin. Uning tubida behisob javohirlar bisyor. Biroq Navoiy olamini hali-hanuz to`la zabit etolganimiz yo`q. Merosini o`rganish asnosida har doim yangidan-yangi kashfiyotlar qilish mumkin. Navoiy badiyyatini olaylik. Uning har bir bayti, misrasini tadqiq etishning o`zi juda katta izlanishlarni talab etadi.

Xulosa qiladigan bo`lsak, Navoiyning ijodi va sermazmun hayoti yosh avlod uchun o`ziga xos na`muna vazifasini bajaradi. Uning buniyodkorlik g`oyalari, xalqsevarligi va haqiqatparvarligi barchani lol qoldiradi. Navoiy ijodi orqali insonlarni ogohlilikka, ezgulikka va kamtarlikka davit etadi. Mutafakkirni tushunish, tushuntirish uchun birinchi navbatda uni sevish va sevdirish lozim. Navoiyning asarlari yosh avlodning qalbida Vatanga va millatga bo`lgan muhabbatni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. So`z mulkinining sultonni qoldirgan adabiy meros hayratlanarli darajada ulkan va shoirning "Xamsa", "Xazoyin-ul maoniy", "Lison-ut tayr", "Tarixi anbiyo va hukamo", "Tarixi muluki Ajam", "Mezon -ul avzon", "Majolis-un nafois", "Muhokamat-ul lug`atayn" asarlari xalqimizning ma`naviy-madaniy mulki bo`lib

⁶ Tog`aymurodov.M. Alisher Navoiy bola tarbiyasi xususida. JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS/<http://www.newjournal.org/2023>.

qolmoqda. Uning katta hajmdagi merosi millarlarni ezgulik, poklik, haqiqat atrofida jipslashtirishga qodir bo`lgan bebaho xazinadir⁷.

REFERENCES

1. Tog‘aymurodov.M. Alisher Navoiy bola tarbiyasi xususida. JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS/http://www.newjournal.org/2023.
2. Sirojiddinov. Sh. «Alisher Navoi and the XXI century». The Materials of the International Scientific-Theoretical Conference on the Theme. Toshkent, 2021.
3. Matyoqubova .T. Alisher Navoiy hayoti va ijodi//O’quv qo’llanma. Toshkent, 2009.
4. Jabborova. G. Yosh avlodni ma’naviy barkamol etib tarbiyasida Alisher Navoiy merosining muhim ahamiyati. "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal, 2020.
5. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik, 9-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011.
6. Alisher Navoiy. Navodiru-sh-shabob. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik, 2-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011.
7. Фиёсиддин Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. – Т.: Akademnashr, 2018. – 372 б.
8. Avaznazarov O.R. The role of the image of Saki in the Navoi’s literary and historical mission. International Journal of Anglisticum. Literature, Linguistics and Interdisciplinary Studies. Volume: 9 / Issue: 3 / – Macedonia, 2020.
9. Авазназаров О.Р. Image of wine in lyrics of Navoi. Ўзбекистонда хорижий тиллар. – 2019. – № 1.
10. Avaznazarov O.R. The role of the image of Saki in the poem “Hayratu-l-abror”. Sheffield, 2019.
11. Авазназаров О.Р. “Фарҳод ва Ширин”да соқий образи. Алишер Навоий ва XXI аср: Тез. Халқ– Тошкент, 2020.
12. Авазназаров О.Р. “Лайли ва Мажнун” достонида соқий образи. Тез. Халқ. Илм.амал.конф. 5-6 марта 2020. – Бухоро, 2020.

⁷ Tog‘aymurodov.M. Alisher Navoiy bola tarbiyasi xususida. JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS/http://www.newjournal.org/2023.